

OMON MATJON IJODIDA GIDRONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Aqmanova Shahnoza Alimboyevna,
UrDU O'zbek tilshunosligi kafedrasida dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada Omon Matjon she'riy va nasriy asarlarida qo'llangan Xorazm vohasi gidronimlarining lingvopoetik imkoniyatlari tahlil qilingan. Badiiy matn lingvopoetikasida onomastik birliklar, xususan, gidronimlar nafaqat suv inshooti o'rnini anglatishi, balki muallifning badiiy niyatini ifodalash, matnga hissiy-ekspressiv bo'yoq berish va tarixiy xotirani jonlantirish vositasi ekanligi misollar asosida dalillangan.

Kalit so'zlar: gidronim, lingvopoetika, badiiy matn, yozuvchi uslubi, ekvonimiya, muaqqad onomastik birlik, real gidronimlar, jonlantirish, parallellizm.

Аннотация. В данной статье анализируется лингвопоэтический потенциал гидронимов оазисов Хорезма, используемых в поэтических и прозаических произведениях Амона Матъона. На примерах доказывается, что в лингвопоэтике литературного текста ономастические единицы, в частности гидронимы, не только обозначают местоположение водоема, но и служат средством выражения художественного замысла автора, придавая тексту эмоциональную и выразительную окраску и оживляя историческую память.

Ключевые слова: гидроним, лингвопоэтика, литературный текст, стиль письма, эквонимия, фиксированное ономастическое единство, реальные гидронимы, оживление, параллелизм.

Annotation. This article analyzes the linguopoetic potential of the Khorezm oasis hydronyms used in the poetic and prose works of Amon Matjon. It is argued on the basis of examples that in the linguopoetics of a literary text, onomastic units, in particular hydronyms, not only denote the location of a water structure, but also serve as a means of expressing the author's artistic intention, giving the text emotional and expressive coloring, and reviving historical memory.

Key words: hydronym, linguopoetics, literary text, writing style, equonymy, fixed onomastic unity, real hydronyms, revitalization, parallelism.

Kirish. Bugungi o'zbek tilshunosligida badiiy matni antropotsentrik paradigma asosida, xususan, lingvopoetik va kognitiv-semantik jihatdan tadqiq etish yetakchi yo'nalishga aylandi. D.Andaniyazova ta'kidlaganidek, "tilshunoslikning yangi ilmiy konsepsiyalari asosida nomlarning badiiy matni shakllantirishdagi turli vazifalarini aniqlash, shu asosda ularning badiiy-estetik xususiyatlarini ochib berish hamda mazkur birliklarni fanlararo mushtarak tamoyillar asosida tekshirish tilshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi" [2:4]. Xalq hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan suv inshootlari nomlari ya'ni gidronimlar ham badiiy asar tilida o'ziga xos qamrovga va estetik xarakterga ega nomlar hisoblanadi. Deyarli barcha ijodkorlar gidronimlar misolida estetik maqom yarata olgan. Xususan, Omon Matjon ham she'riy va nasriy asarlarida gidronimlardan badiiy obraz yaratishda unumli foydalangan. Zero, "badiiy matndagi onomastik birliklar matn ko'lamini, mazmunini va uslubini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi" [4:50]. Shoir gidronimlarga geografik joyni ko'rsatish uchun emas, balki badiiy maqsadlarda, milliy tarix, xotira va inson ruhiyatini ifodalash vositasi sifatida murojaat qilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Badiiy asar tilidagi geografik joy nomlarini o‘rganish, avvalo, toponimika ilmini rivojlantirish uchun muhim bo‘lsa, so‘ngra yozuvchi uslubini belgilash uchun ham ahamiyatlidir [5:62]”. Omon Matjon asarlarida Amudaryo (Amu, Jayhun, Oks), Sirdaryo (Sir), Orol, Xazar (Kaspiy) kabi bir qancha real gidronimlar poetonim darajasiga ko‘tarilgan. Real toponimlar va gidronimlar badiiy matnda ko‘pincha metaforik ma‘noda qo‘llanib, g‘oyani ekspressiv ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Omon Matjon Amudaryoni turli nomlar bilan atash orqali nafaqat daryoni, balki tarixiy davrlarni ham jonlantiradi:

O, Xorazm! Tarixing Oksning tarixidir,

Amuning tarixidir, Jayhunniki va yo [7:73]!

Bu o‘rinda gidronimlar zamon va makon birligi tamoyili asosida qo‘llangan bo‘lib, “Oks” qadimgi tarixni, “Jayhun” mumtoz madaniyatni, “Amu” esa bugungi kunni ifodalovchi tarixiy xotira kodlari vazifasini o‘tamoqda.

Omon Matjon *daryo* giperonimi ostida birlashuvchi Amu va Sir gidronimlarini “*Ayqirib oqmasa Amu bilan Sir...*”, “*Xabar ololmas goh Amu ham, Sir ham*” kabi misralarda qo‘llagan. Bunda Amu va Sir gidronimlari o‘zaro ekvonimik munosabatga kirishgan. I.Ermatovning “O‘zbek tilida ekvonimiya” monografiyasida ta’kidlanishicha, bitta giperonim ostida birlashuvchi va o‘zaro teng ma’noli birliklar ekvonimlar hisoblanadi. Ekvonimlar bir-birini inkor etmaydi, balki to‘ldiradi va umumiy semantik maydondagi tushunchalarni bir-biriga yaqinlashtiradi [3:20].

Tahlil va natijalar. D.Andaniyazova o‘z tadqiqotida “Muvaqqat onomastik birliklar standart onomastik tizimda uchramaydigan, ijodkor tomonidan yasalgan hamda muayyan badiiy niyatni yoritishga xizmat qilgan onomastik birliklar [2:42]” ekanligini ta’kidlaydi. Omon Matjon ijodida gidronimlar asosida yasalgan ayrim muvaqqat birliklar aniqlandi. “*Tuyamo ‘yin dengizin iyar misoli ko‘zgu*”. Aslida gidrotexnik inshoot ya’ni suv ombori bo‘lgan *Tuyamo ‘yinni* shoir dengiz deb atash orqali obyektning hajmini mubolag‘a qiladi va unga ijobiy-ulug‘vor baho beradi. Ushbu gidronimik indikator muallifning subyektiv munosabatini ifodalab kelgan.

Quyidagi she‘r mashhur hofiz Otajon Xudoyshukurovga bag‘ishlangan. Shoir real geografik daryolar Amudaryo va Sirdaryodan tashqari yer ostidan oqadigan ko‘rinmas daryoni, xalqning ma’naviyati, san’ati va ruhiyatini ramziy ma’noda “Uchinchi daryo” deb atagan.

Bu nima?! Ko‘rinmas qanday oqim bu?!

Yerdanmi, ko‘kdanmi kelar bu sado?!

Nahot, tuprog‘imda, ko‘zga tashlanmay,

Oqib yotar ulug‘ Uchinchi daryo?! [7:275]

“Uchinchi daryo” – xaritada yo‘q, ammo xalqning ruhida oqadigan san’at, musiqa va ma’naviyat daryosidir. Shoir hofizning ovozi va xalqning san’atga bo‘lgan

muhabbatini ko'zga ko'rinmas, lekin Amu va Sir kabi qudratli daryoga o'xshatadi. "Uchinchi daryo" gidronimi to'liq metaforik xarakterga ega muaqqad birlikdir.

Ma'lumki, badiiy ijodda personifikatsiya ya'ni jonlantirish san'ati ustunlik qiladi.

Tislanib tub-tubin ochar Jayxun ham,
Mavjlarin do'pposlab tinar Aqchako'l.
Qadim dengizlardan yodgor barxanlar,
Birdan izlab qolar o'ngmi chapga yo'l [6:78].

Tislanmoq fe'li odatda jonli mavjudotlarga hayvon yoki insonning orqaga chekinishiga nisbatan ishlatiladi. Daryoning "tislanib" (suvining kamayishi yoki oqimning o'zgarishi) tubini ochishi – daryoning tirik jon kabi harakatlanishi sifatida tasvirlangan. *Do'pposlamog* fe'li insonga xos harakatdir. Ko'l o'z to'lqinlarini qirg'oqqa urib, keyin tinchlanishi – jahlidan tushgan yoki charchagan odam holatiga qiyoslangan. Bu metaforik ko'chim hisoblanadi. Qum barxanlarining shamol ta'sirida ko'chishi shoir tomonidan yo'l izlash sifatida talqin qilingan.

Ko'p kezdin sho'r hamla Bahrul Muhitni,
Orolni tark etgan tuzlardan qo'rqdim [6:41].

Ushbu baytda "Orol" gidronimi o'zining denotativ ma'nosidan tashqari, kuchli konnotativ va assotsiativ ma'nolarni ifodalab, bir qancha lingvopoetik imkoniyatlarni namoyon etgan. Xususan, shoir ulkan okeanning sho'r hamlasidan ya'ni bo'ronlaridan, xavfidan qo'rqmaydi, chunki bu tabiiy kuch. Biroq u Oroldan – aniqrog'i, uning fojiasidan qo'rqadi. Bu yerda *Orol* gidronimi okeanga nisbatan kichik bo'lsa-da, uning ma'naviy va fojiaiy yuki okeandan og'irroq ekanligi ifodalangan. Odatda suv bug'lanadi va tuz qoladi. Lekin shoir tuzni faol harakat egasi sifatida tasvirlamoqda.

Yana bir baytda Omon Matjon Orol dengizi obrazini yaratishda metafora, zidlash (antiteza) va ijtimoiy-psixologik parallelizm usullaridan mahorat bilan foydalangan.

Suv tushdi Orolga, tog'mas,
Xalq ruhining toshuvi bu [6:51].

Ushbu parchada Omon Matjon Orolni suvga zor geografik chuqurlik sifatida emas, balki millat ruhiyatining moddiy shakli sifatida tasvirlagan. U suvning manbayini tog'dan ruhga o'zgartirish orqali Orolni qutqarish faqat muhandislik ishi emas, milliy uyg'onish masalasi ekanligini badiiy bashorat qilgan.

Omon Matjon gidronimlar vositasida ekspressiv-emotsional vazifaning namoyon bo'lishini daryo va dengizlarga insoniy his-tuyg'ularni yuklash orqali kitobxonga kuchli hissiy ta'sir o'tkazishida ko'rish mumkin:

Men she'r yozsam, Endi uni qog'ozga emas,
Loyqa-toshqin suvlariga bitgum Jayhunning:
Men botinib, to'lib-toshib aytmagan hislar
Qirg'oqbuzar mavjlarida uyg'onsin uning! [7:105]

Shoir bu o‘rinda *Amudaryo* so‘zini emas, uning tarixiy va mumtoz adabiyotda faol qo‘llangan Jayhun variantini tanlagan. Omon Matjon she‘riyatida arxaik so‘zlar va tarixiy nomlar (Oks, Jayhun) asarga ko‘tarinkilik va ulug‘vorlik baxsh etish uchun poetik aktuallashtiriladi. “Jayhun” so‘zi etimologik jihatdan “junun” (telbalik, jo‘shqinlik) so‘zi bilan o‘zakdosh bo‘lib, matndagi *to‘lib-toshib aytmagan hislar va qirg‘oqbuzar mavjlar* ma‘nolariga mos keladi. She‘rda *qog‘oz* va *Jayhun suvlari* o‘zaro zidlantirilgan. Qog‘oz – statik, chegaralangan va jonsiz vosita. Jayhun suvlari esa – dinamik, cheksiz va jonli stixiya. Shoir she‘rni qog‘ozga emas, suvga yozishni istashi orqali ijodining abadiy harakatda bo‘lishini xohlaydi.

Omon Matjonning “Seni yaxshi ko‘raman” to‘plamidagi “To‘y maqtovi” she‘rida Xorazm eli va uning odamlariga berilgan ta‘rifda gidronimlar markaziy o‘rin tutadi:

Sen Jayhun o‘g‘lisen, fe‘ling — xislating

Dasht aro Oroldek dengizdan ma‘lum [7:240].

Ushbu baytda qo‘llangan Jayhun va Orol gidronimlari inson xarakteri va millat ruhini ochib beruvchi poetonimlar darajasiga ko‘tarilgan. D.Allaberganova ta‘kidlaganidek, Omon Matjon she‘riyatida tarixiy voqelikni tasvirlash yoki nutqqa ko‘tarinkilik bag‘ishlash uchun arxaik so‘z va nomlardan unumli foydalaniladi [1:58]. Shoir bu o‘rinda zamonaviy *Amudaryo* nomining o‘rniga uning tarixiy va mumtoz adabiyotdagi varianti bo‘lmish Jayhun nomini tanlagan. Bu esa lirik qahramonning ildizlari chuqur tarixga borib taqalishiga ishora qiladi. Daryoning ota sifatida tasvirlanishi jonlantirish san‘atidir. Shoir boshqa bir o‘rinda “*Jayhun ham daryo emas, bobolar ehtirosi!* [7:74] deya ta‘kidlagan edi. Demak, bu misrada Jayhun xorazmliklarning qonida oqayotgan jo‘shqinlik va ijodkorlik manbayidir.

Quyidagi ikki misra Omon Matjonning so‘z qo‘llash mahoratini yorqin namoyon etadi:

Zamonlar karvonidek oqib yotipti Amu,

Har qatrası Xorazm hayotidan solnoma [7:74].

U Amu gidronimini vaqt o‘lchovi va tarixiy xotira tushunchalari bilan birlashtirib, daryoni Xorazm xalqining o‘tmishi va bugunini bog‘lovchi abadiy ramz darajasiga ko‘targan.

Onomastik birliklarda badiiy obraz yuki ko‘proq she‘riy asarlarda ko‘rinadi. Omon Matjonning nasriy ijodida, xususan, uning qalamiga mansub afsona va rivoyatlar matnlarida ham gidronimlarning badiiy-ekspressiv xususiyatini sezilarli darajada kuzatish mumkin: “...*hamma Amudaryodan oqib keladigan Xizreliyopning loyqa-bo‘tana suvida shataloq otishadi. ...Roziyaning ko‘z o‘ngidan bolalik xotiralari – Xizreliyop loyqa suvlari... birma-bir tizilib o‘ta boshladi*” [7:28]. Omon Matjon Xizreliyop nomini qo‘llash orqali voqelikning aynan Xorazmning Gurlan tumanida sodir bo‘layotganini ishonchli dalillaydi va matnga milliy-hududiy ruh bag‘ishlaydi. Nom tarkibi “Xizr” - afsonaviy Xizr alayhissalom, “eli” va “yop” qismlaridan iborat bo‘lib, “Xizr elining arig‘i” ma‘nosini

anglatadi. Garchi matnda suvning loyqa-bo'tana ekanligi aytilsa-da, nomdagi "Xizr" komponenti suvning muqaddasligi va tiriklik manbayi ekanligiga ishora qiladi. Xizreliyop – Omon Matjon asarida real onomastik birlik bo'lib, u asar qahramonlarining bolalik dunyosini, o'zligini va tug'ilib o'sgan makoniga bo'lgan muhabbatini aniq detallar orqali gavdalantirishga xizmat qilgan.

Folklor asarlaridagi onomastik birliklar o'zida xalqning o'tmishi, e'tiqodini aks ettiradi. Omon Matjon asaridagi "Ajdar quduq" yoki "Kampir quduq" nomlari folklorizm va intertekstuallik vositasida matnlaro aloqadorlik hodisasini yuzaga keltiradi: *"Kampirni qirq ming yildan beri birov borishga qo'rqadigan, elda "Ajdar quduq" nomi bilan mashhur bo'lgan chuqurga tashlashga buyuribdi [8:88].* Ushbu gidronim matnga afsonaviy ruh bag'ishlaydi va voqealar rivojida sirli makon vazifasini o'taydi. Bu yerda nomning etimologiyasi to'g'ridan to'g'ri matn syujetiga ta'sir qilgan.

Xulosa. Badiiy matn lingvopoetikasida onomastik birliklar, xususan, gidronimlar nafaqat suv inshooti o'rnini anglatish, balki muallifning badiiy niyatini ifodalash, matnga hissiy-ekspressiv bo'yoq berish va tarixiy xotirani jonlantirish vositasi hisoblanadi. Omon Matjon she'rlarida gidronimlar tirik ajdod, insoniy dard va fojea, mazlum inson, telba oshiq, moddiy dunyodan ma'naviy dunyoga o'tish, bolalik xotiralarini uyg'otuvchi kichik Vatan vazifalarini bajarib, shoirning falsafiy va ijtimoiy qarashlarini badiiy tilda ifodalovchi eng kuchli vositalardan biriga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allaberganova D. Omon Matjon she'riyati lingvopoetikasi. Filol. fan. falsafa dokt. (PhD) diss. – Urganch, 2024. – B. 58-62. (141)
2. Andaniyozova D. O'zbek tilida muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari. DSc diss. – Toshkent, 2025. – B. 4. (235)
3. Ermatov I. O'zbek tilida ekvonimiya. – Toshkent, 2025. – B.20. (70)
4. Алтухова О.Н. Поэтонимы-медиаторы в макроконтексте произведений В.Пелевина // Социосфера. – М., 2014. – №3. – С. 50.
5. Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – Б. 62-63.
6. Омон Матжон. Ардахива. – Тошкент, 2000. – Б.51. (96) KRILL
7. Омон Матжон. Сени яхши кўраман. – Тошкент, 1981. – Б.240. (344)
8. Омон Матжон. Ҳаққуш қичкириғи. – Тошкент, 1979. – Б.28. (139 Б)